ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

ZIYORAT TURIZMIDA TURISTLAR SONINI KO‘PAYTIRISHDA IJTIMOIY TARMOQLAR VA MEDIA TARG‘IBOT SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Xalqaro nordik universiteti 2 kurs magistranti
Abdug‘aniyev Toxirjon Tursunboy o‘g‘li

Abstract. In today's era of globalization, the tourism industry has become one of the most important sectors of national economies. In particular, pilgrimage tourism has been developing rapidly in Uzbekistan in recent years. The holy shrines, historical and cultural monuments, and the heritage of Islamic civilization in our country are of great interest to foreign and domestic tourists. In addition, the widespread use of digital communication tools, in particular social networks and media resources, has created new opportunities for promoting tourism.

Keywords: tourism industry, media resources, historical, activities, heritages.

Annotatsiya. Bugungi globallashuv davrida turizm sohasi milliy iqtisodiyotlarning muhim tarmoqlaridan biriga aylandi. Xususan, O‘zbekistonda ham ziyorat turizmi so‘nggi yillarda jadal rivojlanmoqda. Mamlakatimizdagi muqaddas ziyoratgohlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar hamda islom sivilizatsiyasi merosi xorijiy va mahalliy turistlar uchun katta qiziqish uyg‘otmoqda. Shuningdek, raqamli kommunikatsiya vositalarining, xususan, ijtimoiy tarmoqlar va media resurslarining keng tarqalishi turizmni targ‘ib etishda yangi imkoniyatlar yaratdi.

Kalit so'zlar: turizm sanoati, media resurslar, tarixiy, faoliyat, meroslar.

Mamlakatimizda turizm sohasi yildan-yilga rivojlanib, iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli ham turizm sohasini rivojlantirish, uning imkoniyatlarini to‘la namoyish etish maqsadga muvofiqdir. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev[1]ning 2023-yil 4-iyuldagi “Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga a’zo davlatlar rahbarlari Kengashi majlisidagi nutqi”da xalqaro hamkorlik masalalarida turizm salohiyatini oshirish masalasiga to‘xtalib, shunday ta’kidlagan edi, “turizm sohasidagi hamkorlik asosiy ustuvor yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda sifatli va maqbul narxlardagi umummintaqaviy sayyohlik mahsulotlari yetishmasligi yaqqol sezilmoqda. ShHT mintaqasida Turizmni rivojlantirish yilida turizm ma’muriyatlari, yetakchi operator va aviakompaniyalar o‘rtasidagi aloqalarning faollashuvini qo‘llab-quvvatlaymiz. Samarqand shahridagi "Ipak yo‘li" xalqaro universitetida shu yilning oktabr oyida bo‘lib o‘tadigan Jahon sayyohlik tashkiloti Bosh assambleyasining yubiley sessiyasi doirasida ShHT turizm industriyasini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazishni taklif etamiz” deb takidlaganlari ham bejiz emas.

Mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirish yuzasidan ken qamrovli islohatlar amalga oshirilmoqda. O’zbekiston sharoitida turizmni rivojlantirishning bir qancha rejalar ishlab chiqildi. Men bir narsaga amin bo’ldimki ta’lim tizimi bilan turizmni birgalikda olib boorish bu turizmni rivojiga katta foyda keltiradi deb o’ylayman. Eng avvalo o’quvchi yoshlarning jamyatdagi o’z o’rnini egallash uchun ham ta’lim tarbiya alohida o’rin egallaydi. Shu bilan birga, tarbiya yosh avlodning

[1] https://uzbekistan.org/uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashi-majlisidagi-nutqi/3269/

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

jamiyat hayotiga kirib kelishini va madaniyatni o'rgatish aniq tarixiy jarayonning faol subyektlari sifatida shakllanishini ta'minlaydigan avlodlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmidir.

Turizm va ta'lim birlashib yosh avlodni tarbiyalash malakali kadr bo'lib tarbiyalash zarur bo'lib qolmoqda. Yoshlarni tarbiyalashga munosabatni tubdan qayta ko'rib chiqish, yangi yondashuvlarni izlash, mazmun va vositalarni ishlab chiqish, tarbiyalash amaliyotida samarali, ammo hanuzgacha to'la qonli foydalanilmayotganligini, atrofdagi tarixiy, madaniy, meroslarni o'rganilmayotganligi ijtimoiy-pedagogik va tabiiy muhit imkoniyatlarini aniqlash zarur bo'ldi. Bugungi kunda ta'lim metodikasi va nazariyasini ishlab chiqish, qanday shaxsni tarbiyalash kerakligi va qanday fazilatlarni shakllantirish kerakligini va bu sharoitda turizm nima qilishi mumkinligini tushunishga imkon beradigan kontseptual yo'naltirilgan istiqbollarni aniqlashga yangi yondashuvlar talab qilinmoqda. Ta'lim tizimida islohotlar boshlanganidan beri (shuningdek, butun mamlakatni isloh qilish) ko'plab tarbiya g'oyalari tanqid qilindi va qayta baholandi. Turizmdagi ta'lim faoliyati deganda biz ta'lim maqsadini - shaxsni o'z turistik faoliyatining sub'ekti sifatida shakllantirishni amalga oshirishga qaratilgan kasbiy faoliyatni tushunamiz.

Jumaladan, Ziyorat turizmi – diniy ehtiyojlarni qondirish, ma'naviy poklanish va ruhiy yangilanish maqsadida amalga oshiriladigan sayohat turi bo'lib, u turizmning eng qadimiy shakllaridan biri hisoblanadi. O'zbekistondagi Buxoro, Samarqand, Termiz, Namangan va Toshkent kabi shaharlarda Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahovaddin Naqshband kabi olimu avliyolar majmualari joylashgan.

Ijtimoiy tarmoqlar (Instagram, Facebook, Telegram, YouTube, TikTok va boshqalar) hamda ommaviy axborot vositalari (televidenie, radio, onlayn nashrlar) ziyorat turizmini keng targ'ib etishda quyidagi afzalliklarga ega:

- Auditoriyani keng qamrab olish
- Interaktiv ta'sir
- Maqsadli reklama
- Milliy brendni shakllantirish

Ziyorat turizmini ilgari surishda quyidagi media va ijtimoiy tarmoq texnologiyalari samarali deb topilgan:

- Kontent-marketing
- Inflyuenser-marketing
- 3D va VR texnologiyalar
- Xeshteg va chellenjlar
- Maqsadli auditoriya tahlili
- Ko'p tilli kontent
- Media-kontent sifatini oshirish
- Mahalliy infratuzilmani yaxshilash

Ziyorat turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalar, xususan ijtimoiy tarmoqlar va media platformalarning samarali qo'llanilishi juda muhim. O'zbekistonning boy ma'naviy va diniy merosini dunyoga tanitish, turistlar sonini ko'paytirish va milliy iqtisodiyotga hissa qo'shish maqsadida ijtimoiy media strategiyalari keng qo'llanilishi lozim.

Mamlkatimiz olimlar tomonidan ziyorat turizmini rivojlantirish bo'yicha keng qamrovli fikr-mulohazalar keltirilgan. Jumladan,

ISSN: 2582-4686 SJIF 2021-3.261, 2022-2.889, 2023-5.384, 2024-6.875 ResearchBib IF: 9.948 / 2024

THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-5, ISSUE-6

M.Xolmirzaev o‘z tadqiqotida ta’kidlaganidek, ziyorat turizmi turizmning barqaror rivojlantirishning ta’sir omillari, unga xizmat qiluvchi jiahtlarga to‘xtalib shunday izohlagan edi. Ziyorat turizmini rivojlantirishda asosan iqtisodiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan ijobiy ta’sir etuvchi ishlarni amalga oshirmog‘i lozim takidlagan.

N.Qodirovning ilmiy qarashlarida mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishning asosiy omillarini shunday takidlaydi. “Ziyorat turizmi O‘zbekistonda milliy qadriyatlarni tiklash va dunyoga targ‘ib qilish vositasiga aylanmoqda. Chunki, ziyorat turizmini rivojlanishi orqali o‘zbek xalqining milliy qadriyatlari hamda ko‘rkam va betakror tarixiy binolarni jahongan tanitish hamda har bir hududning tarixiy joylarini ziyoratchilar uchun maskanga aylantirish orqali ommaga tatbiq etish lozim"deb o‘z qarashlarini bildirgan.

O‘zbekistonda ziyorat turizmining rivojlanishi uchun katta salohiyat mavjud. Bu mamlakat islom sivilizatsiyasi markazlaridan biri sifatida e’tirof etilgan bo‘lib, Buxoro, Samarqand, Termiz, Xiva, Qarshi kabi shaharlarda ko‘plab muqaddas qadamjolarning o‘rni beqiyosdir. Shuning uchun ham mamlakatda ziyorat turizmini rivojlantirishda aholining hududiy qadriyatlari ham beqiyos o‘rin tutadi.

Malumki, ziyorat turizmini rivojlantirish yuzasidan biz quydagi fikrlarimizni ilgari surmoqchimiz:

Birinchidan, mamlakat i**nfratuzilmani yaxshilash** – ziyorat joylari atrofida qulay mehmonxonalar, yo‘llar, namozgohlar, qo‘llanmalar bilan ta’minlangan markazlar yaratish.

Ikkinchidan sohaga oid t**a’lim va tayyorlov** – ziyorat turizmi bo‘yicha gidlar, turoperatorlar uchun maxsus kurslar tashkil etish.

Uchunchidan, a**xborot va reklama** – xalqaro ko‘rgazmalarda faol ishtirok, onlayn platforma va mobil ilovalar orqali targ‘ibot.

To‘rtinchidan, x**alqaro hamkorlik** – islom olami mamlakatlari bilan ziyorat yo‘nalishlarini yaratish, "birlashgan turlar" (masalan, Buxoro – Mekka) tashkil etish.

Adabiyotlar tahlili va olimlar fikri shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston ziyorat turizmini rivojlantirish bo‘yicha katta salohiyatga ega. Bu sohani to‘g‘ri tashkil etilsa, u nafaqat iqtisodiy foyda, balki ma’naviy taraqqiyot va mamlakat imijini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

1. https://uzbekistan.org/uz/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoyevning-shanxay-hamkorlik-tashkilotiga-azo-davlatlar-rahbarlari-kengashi-majlisidagi-nutqi/3269/
2. Ashurov M.X. 'Turizm industriyasida marketing'. – T.: “Fan va texnologiya”, 2022.
3. Komilov N. 'O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari'. – Turizm va iqtisodiyot, 2023.
4. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Media: Handbook on Sustainable Promotion, 2021.
5. Axmedova D. 'Ijtimoiy tarmoqlar orqali turizmni targ‘ib etish usullari'. – O‘zbekiston ijtimoiy hayoti, 2022.
6. Karimov A. 'Ziyorat turizmini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o‘rni'. – TDIU Ilmiy axborotlari, 2023.
7. https://uzbekistan.travel – O‘zbekiston Turizm va madaniy meros agentligi rasmiy sayti.
8. https://datareportal.com – Global Digital Reports 2023.